



YANGI KONSTITUTSIYA -TARAQQIYOT QOMUSI

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari

Ramazonov Islom Abrayqul o'g'li

islomramazonov570@gmail.com

Nuraliyev Xolmurod Komil o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquq va erkinliklari, ta'minlash sohasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning huquqiy o'rni. Shuningdek, inson huquq va erkinliklarining ta'minlash sohasida huquqiy ta'limning o'rni va roliga qaratilgan ustuvor vazifalar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Inson huquqlari, Huquqiy ta'lim, Inson erkinligi, Siyosiy huquq, Iqtisodiy huquq, Ijtimoiy huquq.

Konstitutsiya haqida gapirishdan oldin avvalambor konstitutsiya atamasiga to'xtalsak konstitutsiya -(lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi [1]. "Temur Tuzuklari" Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida 1990 yil iyun oyida tuzilgan Komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnati natijasida Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi va so'ngra uchinchi



loyihalari ishlab chiqildi. Ushbu Komissiya a'zosi sifatida men ana shu tarixiy jarayonda bevosita ishtirok etganimni doimo faxr bilan eslayman. Konstitutsiyaning yaratilishi bilan bog'liq qizg'in bahs-munozaralar, turli g'oya va fikrlar hali ham xotiramda [2] deb ta'kidlaydilar muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich.

Konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma'qulladi va 1992- yil 8-sentabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilishga qaror qildi. Ushbu yig'ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992- yil 26-sentabr kuni tayyor bo'ldi va shu kuni matbuotda chop etildi. Loyiha e'lon qilingach, uning umumxalq muhokamasi juda keng tus oldi. Muhokamada mamlakatimiz katta yoshdagi aholisining deyarli hammasi ishtirok etdi. Matbuotda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda qizg'in bahs-munozaralar bo'ldi. Ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi, Konstitutsiya loyihasiga doir masalalar bo'yicha suhbatlar, anjumanlar tashkil qilindi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Ayrim davlatlar hatto o'z asosiy qonunlarining referendumda, xalq ishtirokida qabul qilingani bilan faxrlanishadi. Albatta, bu eng oliy darajadagi qaror. Biroq bu jarayonda xalq oldida faqat ikki savoldan biriga javob berish imkonigina bo'ladi: Konstitutsiya matnini tasdiqlash yoki rad etish. Umumxalq muhokamasi davomida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza bildirilgan. Ma'lumki, davlat va jamiyat hayotida ba'zi bir narsalar bo'ladiki, u vatanimiz kabi yagonadir: bayrog'imiz bitta, gerbimiz bitta, madhiyamiz bitta, shu qatori Konstitutsiyamiz ham bitta. Bularning har biri o'z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqсадlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasdir. Bosh qomusimiz qabul qilinishidan maqsad va vazifalarga e'tibor beradigan bo'lsak, muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik



huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat. Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat bu Konstitutsiyaning "O'zbekiston xalqi" deb boshlanishidir. Bunday jumalarni boshqa biron bir davlatda uchratmaymiz. Konstitutsiyamizda inson manfaatlari ustun qo'yilgan. Asosiy qonunimizni sinchiklab o'rgangan har bir shaxs bevosita guvohi bo'ladiki, uning butun mazmun-mohiyati insonga xizmat qilishga yo'g'rilgan. Konstitutsiyamizning biron bir joyida "davlatning huquqi" yoki "fuqarolar davlat hoxish-irodasini bajarishi shart" qabilidagi qoidalar uchramaydi. Aksincha, Asosiy qonunimizda "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida ma'suldirlar", "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" kabi davlatning majburiyatlarini uchratamiz. Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko'ra voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir[3]. Konstitutsiyani ishlab chiqish, muhokama etish va qabul qilish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma" bo'lganligi, u "xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini" aks ettirishi, uning "xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli" ekani haqidagi hikmatli xulosalari to'g'ri asoslangan ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Yana shuni ta'kidlash joizki, inson huquqlari rivojlanishi uzluksiz davom etuvchi va takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha



O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi 2023-yil 10-martdagi 3017-IV-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi 2023-yil 14-martdagi SQ-702-IV-sonli qarorlariga muvofiq, 2023-yil 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti so‘zlagan nutqida esingizda bo‘lsa, Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan marosimda yaqin qarindoshlari sudlangan, deb fuqarolarni ishga qabul qilmaslik yoki yuqori lavozimlarga tayinlamaslik bilan bog‘liq masalaga alohida to‘xtalgan edim. Bunday noma’qul yondashuv tufayli ko‘plab yoshlarimiz, malakali mutaxassislarimiz aybsiz aybdor bo‘lib, yaqin qarindoshlari sodir etgan qilmishlar uchun jabr tortib kelayotgan edi. Nima sababdan bir jinoyat uchun butun avlod javob berishi kerak? Otasining qilmishi uchun nega farzandlari yoki aka uchun uka javob berishi lozim? Bunday adolatsiz “tizim”dan endi butunlay voz kechamiz. Chunki xalqimizga nisbatan sobiq tuzum davrida, ayniqsa, o‘tgan asrning 30-yillaridagi siyosiy qatag‘onlarning o‘zi yetarli emasmi? Shu bois Konstitutsiyamizga “Shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo‘lishi mumkin emas”, deb qat’iy yozib qo‘yishimiz kerak. Shuningdek, “Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga nisbatan insoniy munosabat va ularning qadr-qimmati ta’minlanishi shart”, degan norma ham Asosiy qonunimizda o‘z aksini topishi zarur. Biz jazo muddatini o‘tayotganlarni ham qayta tarbiyalab, ular sog‘lom hayotga qaytishi uchun barcha choralarni ko‘rishimiz kerak. Yana bir masala. Ko‘pchiligimiz yaxshi bilamizki, qadimgi Rim huquqida oltin qoidalar bor. Masalan, “hech kimga bajarib bo‘lmaydigan majburiyatni yuklama” yoki “qonun – imkonsiz narsani talab qilmaydi”, kabi qoidalar shular jumlasidandir. Tariximizda



ilk bora O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilanmoqda. Ya’ni, insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlanayapti. Referendum jarayonida xalqimiz hayotining mazmuni bo‘lmish aziz farzandlarimiz tarbiyasi va ularning yorug‘ kelajagi olib borayotgan siyosatimizning muhim yo‘nalish bugungi kunda 30 yoshgacha bo‘lganlar yurtimiz aholisining qariyb 60 fozini tashkil etmoqda. Bu – biz uchun juda katta boylik, insoniy resurs. E’tibor bersak, mamlakatimiz har jihatdan katta davlatga aylanmoqda. Aholimiz 2040 yilga borib 50 millionga yetadi, jamiyatning yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qiladi. Ularga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim. Bular va boshqa ko‘pdan-ko‘p muammolar yechimi mustahkam huquqiy poydevorni – O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini taqozo etadi. Shu bilan birga, davlat iqtidorli yoshlarni, ularning moddiy ahvolidan qat’i nazar, doimo qo‘llab-quvvatlashini mustaqil qoida sifatida belgilab qo‘yishimiz kerakligi, xalqimizning muruvvat, bag‘rikenglik, yordamga muhtojlarga beg‘araz ko‘mak berish, imkoniyati cheklangan insonlarga teng imkoniyatlar yaratish, mehr-oqibat va saxovat kabi fazilatlari milliy g‘oyamizning asosini tashkil etadi. Shu asosda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan teng foydalanish, harakatlanish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sport, bandlik, rehabilitatsiya, siyosiy-ijtimoiy hayotda teng ishtirok etish bilan bog‘liq huquqlari ta’minlanmoqda. Mamlakatimizda o‘tgan qisqa davrda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish maqsadida joriy etilgan “temir”, “ayollar”, “yoshlar” daftarlari, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash tizimlari o‘zining dastlabki ijobiy natijalarini bermoqda [4]. Biroq, mazkur ishlar muntazam, tizimli amalga oshirilishi, ortga qaytmaydigan jarayonga aylanishi uchun mustahkam konstitutsiyaviy kafolat lozim. Har bir fuqaro kundalik hayotida, o‘z haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Konstitutsiyamizdan kuch-quvvat olib harakat qilishi, unga tayanishi lozim [5]. Bugungi shiddatli zamonda inson



huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan demokratik fuqarolik jamiyati barpo etish orqali O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning rivojlangan davlatlardagi insonlardan kam bo'lmagan holda ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratish – asosiy vazifamizdir. Shu ma'noda, men "O'zbekiston – huquqiy davlat" degan g'oyani Konstitutsiyamizda aniq mustahkamlab qo'yishni taklif etilgan, tariximizda ilk bora O'zbekiston – ijtimoiy davlat deb belgilanmoqda. Ya'ni, insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlanayapti. Ilk bor shaxsni ushlash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi berilmoqda. Hammamiz guvohi bo'layapmizki, dunyoda har kuni kutilmagan xavf-xatar va tahdidlar yuzaga chiqyapti. Bugungi ziddiyatli jarayonlar, iqtisodiy qarama-qarshiliklar qachon va nima bilan tugashini bashorat qilib bo'lmaydi. Hatto, ayrim davlatlarning dunyo xaritasida qolish-qolmasligi savol ostida qolayotgani ham sir emas. Jahondagi qariyb 100 million odam o'z hayotini saqlash uchun boshqa yurtlarda boshpana izlab yurgani, oziq-ovqat yetishmasligi, energiya resurslari taqchilligi, pandemiya kabi global muammolar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o'ylantirmoqdaki, bularning bari bizga ham ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Konstitutsiyadagi ya'na asosiy masala – insonning kamol topishi, farovon hayot kechirishida qulay va xavfsiz atrof-muhit, ekologiyaaning ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Tabiatdagi global iqlim o'zgarishlari, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq vaziyatning tobora keskin tus olayotgani ekologik xavfsizlikni g'oyat dolzarb masalaga aylantirdi. Shu bois Konstitutsiyamizda ushbu yo'nalishga doir ekologik-huquqiy normalar o'z ifodasini topishi lozim[6]. O'zbekiston konstitutsiyasi referendum-2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha umumxalq referendumini „Konstitutsiya "meniki", "seniki", "o'zimizniki“ va



„Befarq emasman“ shiorlari ostida o‘tkazildi. 2023-yil 30-apreldagi O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga bo‘lib o‘tgan referendum natijalariga ko‘ra Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Ma’lumot o‘rnida, bundan avvalgi umumxalq referendumi 2002 yilning 27 yanvarida bo‘lib o‘tgandi. Yangi Konstitutsiyadagi barcha o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda ta’kidlaganidek: “Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, sha’ni, qadr-qimmatini to‘liq ta’minlash, tom ma’noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin” ya’ni inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari shuningdek ularga beriladigan imtiyozlar haqida ham belgilandi[7]. Xalqimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyani iliq kutib oldi va referendum natijalariga ko‘ra 90,21% “Ha” javobi berilgan. Bu “Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi – xalqdir” degan tamoyilga to‘la mos keladi. Shunda har bir vatandoshimiz “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi – mening Konstitutsiyam” deb yuksak g‘urur bilan ayta oladi.

Xulosa qilib bir so‘z bilan aytganda, davlatning erkaklar va ayollar, oilalar va bolalar, yoshlar va nuroniylar, nogironligi bor shaxslar, mamlakatda yoki uning tashqarisida bo‘lishidan qat’i nazar, barcha insonlar haqida qayg‘urishi Konstitutsiyada mustahkamlanishi zarur. Biz ta’lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e’tibor berib kelmoqdamiz. Chunki, bugungi shiddatli raqobat zamonida faqat bilimli, ma’rifatli millat va davlat munosib taraqqiyotga erisha oladi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.:«O'zbekiston» (Yangi tahrirdagi) 2023.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. –Toshkent, 2017 yil.
3. Dadasheva A.A. Mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini natijadorligini oshirishning ilmiy-nazariy echimlari. Журнал правовых исследований. Т: 2020 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 1998 yil 1 may.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son, 188-modda